



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o‘rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*
ISHQUVATOV Valiql Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
ZOHIDOV Azamatjon A‘zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Фарфиев Бахромжон Аtxамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*
Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*
Атамуратов Расулжон Кадиржонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Содикова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*
Зохидов Азаматджон Азамович – *доктор экономических наук, профессор.*
Ибрагимов Лутфулло Зийдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*
Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*
Atamuratov Rasuldjon Kadirdjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*
Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*

SOTSILOGIYA

Xomitov K.Z. Qishloq ayollarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta'sirini aniq sotsiologik baholash..... 4

JAMIYAT VA OILA

Ramatov J.S. O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz poydevori 15

Yulchiyeva D.X. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim ahamiyati 22

Акбаров А.А. Толерантность – это свобода в многообразии..... 31

Bo'riyeva M. Oila instituti mustahkamligiga turmush o'rtoq intellekt darajasining ta'siri..... 37

Pardayev S.A., Axatova M.Sh. Shaxsda musiqa madaniyatini shakllantirishda oilaning roli..... 45

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Каримова Д.М. Гендерное равенство: почему этот вопрос становится актуальным в Узбекистане 52

PEDAGOGIKA

Mavlonov B.B. O'smir yoshdagi bolalarning fazilatlarini rivojlantirishda atrof-muhit va pedagogik guruh faoliyatining ta'siri..... 61

IQTISODIYOT

Shayusupova N.T., Amirdjanova S.S. Relationship between employment and economic growth in Uzbekistan 75

Adilova Z.D., Umirova D.S. Modern factors in the development of regional tourism..... 89

Meliboyev A.R., Masharipov F.O'. Mehnat bozori ehtiyojlari asosida yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish 98

Mavlonov Boxodir Biloljonovich,
“Oila va xotin qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
“Tahririy-noshirlik va axborot texnologiyalarini
rivojlantirish” bo‘limi boshlig‘i



O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ATROF-MUHIT VA PEDAGOGIK GURUH FAOLIYATINING TA’SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlarning xulq-atvorida hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish, oilada va ta’lim sohasida ijobiy ijtimoiy, ma’naviy, psixologik muhitni yaratishning metodik-uslubiy tizimini takomillashtirish bo‘yicha mulohazalar, shu bilan birga, pedagog va pedagogik guruh faoliyatining o‘smirlarga ta’siri borasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ham keltirilgan.

Аннотация. В данной статье даны комментарии по совершенствованию методической системы формирования качеств бдительности и осознанности в поведении подростков, созданию положительной социальной и духовно-психологической среды в семье и в сфере образования. Также представлены результаты исследования влияния деятельности педагога и педагогической группы на подростков.

Annotation. This article provides comments on improving the methodical system of forming the qualities of vigilance and awareness in the behavior of adolescents, creating a positive social, spiritual and psychological environment in the family and in the field of education. At the same time, the results of the research on the influence of the activities of the pedagogue and the pedagogical group on teenagers are presented.

Tayanch so‘zlar: o‘smir, odob-axloq, ta’lim, dunyoqarash, erkin fikr, muloqot.

Ключевые слова: подросток, этика, воспитание, мировоззрение, свобода мысли, общение.

Keywords: adolescents, manners, education, worldview, freedom of thought, communication.

Bugungi kunda xalqaro axborot ko'lami, uning zamonaviy xususiyatlari va o'ziga xos doirasi, xalqaro munosabatlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish ko'laming oldingi safga chiqishi ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bunda oila va oliy ta'lim hamkorligi asosida o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kishilik jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Xususan, axborot texnologiyalari shiddat bilan bilan rivojlanib, o'sib borayotgan bir paytda yosh avlodni tarbiyalash, ularda ijobiy fazilatlarini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi, Zero, Internet orqali butun dunyo bo'ylab turli axborotlar almashinuvi o'smirlar ongiga, dunyoqarashiga turli tomonlama (salbiy va ijobiy jihatdan) ta'sir etayotgani hech birimizga sir emas.

Bugungi kunda xalqaro axborot ko'lami, uning zamonaviy xususiyatlari va o'ziga xos doirasi, xalqaro munosabatlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish ko'laming oldingi safga chiqishi ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bunda oila va oliy ta'lim hamkorligi asosida o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekistonda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun bilan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish jarayoni qonuniylashtirilgan va nazoratga olingan. Jumladan, mazkur Qonunning 4-moddasida¹ axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining aniq yo'nalishlari belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, mamlakat fuqarolarining axborotni erkin olish va tarqatish, axborot resurslaridan erkin foydalanish huquqlari ta'minlanadi. Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda axborot xavfsizligi va jamiyatni axborotlashtirish masalasida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) hamda uning qoshidagi OKMBM (Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha Markaz)² tomonidan doimiy ravishda axborot maydoni monitoringi olib boriladi, axborot xurujlarini vaqtida bartaraf etish ishlari amalga oshiriladi, jumladan:

- oilada o'smir yoshlarni tashqi axborotlardan himoya qilish maqsadida ularda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

- tarbiyaviy vositalar va axloqiy me'yorlar orqali o'smirlarda axborot xurujlariga qarshi o'z-o'zini himoyalashning profilaktik tizimini takomillashtirish;

¹ Ўзбекистон Республикаси "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги Қонуни // <https://www.lex.uz/acts/83472>

² Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 24 ноябрдаги 555-сон "Оммавий коммуникациялар соҳасида бошқарув тузилмасини такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида"ги қарори // <https://lex.uz/ru/docs/373340>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 февралдаги "Ахборот соҳаси ва оммавий коммуникацияларни янада ривожлантиришга оид кўшимча чоратадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5653-сонли Фармони // <https://lex.uz/docs/4188795>

– o‘smirlarning axborotlarni saralash ko‘nikmasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ular yashayotgan oilaviy muhit nuqtayi nazaridan o‘rganish;

– ularning xulq-atvorida hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish, oilada va ta‘lim sohasida ijobiy ijtimoiy, ma‘naviy, psixologik muhitni yaratishning metodik-uslubiy tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son³, 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son⁴, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son⁵, 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son⁶, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son⁷ hamda 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son⁸ Farmonlari, O‘zbekiston

– ularning xulq-atvorida hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish, oilada va ta‘lim sohasida ijobiy ijtimoiy, ma‘naviy, psixologik muhitni yaratishning metodik-uslubiy tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/3107036>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июлдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/3255680>

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4312785>

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизimini янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5938-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4740345>

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28 январь 2022 йилдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизimli қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5899498>

Oila va ta'lim masalasida ilm-ma'rifatga, ijtimoiy dunyoqarashni boyitishga qaratilgan, milliy tafakkur bilan sug'orilgan asarlari bilan ma'naviy-falsafiy g'oyalarni ilgari surgan Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon kabi jadid ma'rifatparvarlik harakati namoyandalarining qarashlari ham alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlash zarur.

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-146-son qarori⁹, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 175-son qarori¹⁰, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-sonli Qarori¹¹ ham muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Oila va ta’limning o‘zaro integratsiyasi chambarchas ravishda bir-birini to‘ldirib boradi¹². Mazkur Farmonlar va qarorlar ham o‘smirlarda hushyorlik hamda ogohlik fazilatlarini rivojlantirish, ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda oila va ta’lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyatini taqozo etadi.

Oila va ta’lim masalasida ilm-ma’rifatga, ijtimoiy dunyoqarashni boyitishga qaratilgan, milliy tafakkur bilan sug‘orilgan asarlari bilan ma’naviy-falsafiy g‘oyalarni ilgari surgan Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon kabi jadid ma’rifatparvarlik harakati namoyandalarining qarashlari ham alohida ahamiyatga egaligini ta’kidlash zarur. Xususan, bunga ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning “Ilm, axloq va harakat – yoshlar uchun ziynatdir”¹³, – degan fikri hamda Abdurauf Fitratning oiladagi ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirishga doir mulohazalari misol bo‘ladi¹⁴.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ta’limning rivojlanishi bevosita mamlakatning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy, maishiy, texnologik va axborot kabi sohalarning o‘zaro bog‘liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-146-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5884084>

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 19 июндаги “Баркамол авлодни тарбиялашда оила институти ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг таълим муассасалари билан ўзаро ҳамкорлигини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 175-сон қарори // <https://lex.uz/docs/2022620>

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги “Оила институти янада ривожлантириш ва ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш чора-тадбирлари тўғрисида” 820-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/5193551>

¹² Ходжыев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 b.

¹³ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 168 б.

¹⁴ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – 144 b.

Ijtimoiy pedagogikaning ta'lim tizimida tutgan o'rni alohida ahamiyatga molikdir¹⁵. Chunki uning asosiy vazifasi o'smir yoshidagi bolalarning intellektual bilim darajasi va tarbiyasi, shuningdek, ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish hamda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan. Zero, o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish ilmiy nuqtayi nazardan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Oilada o'smirlar tarbiyasi va o'ziga xosligi mavzusi O.Kont, T.Gobbs, Dj. Lokk, E.Dyurkgeym, Z.Freyd, M.Veber kabi klassik olimlar, shuningdek, V.Shtern, J.Piaje, A.S.Makarenko, T.F. Yefremova, S.M.Solovyov¹⁶, o'zbek olimlaridan N.M.Egamberdiyeva, O. Musurmonova, K.Xasanova, R.A.Umurzakova, K.U.Najmidinova¹⁷lar tomonidan o'rganilgan. V.M. Karimova, X.G. Sharafutdinova¹⁸ o'smirlarning o'ziga xosligi va ular bilan ishlashning pedagogik usullari borasida izlanishlar qilishgan.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogika, psixologiya va tilshunoslikning o'rganish sohasi bo'lgan neyrolingvistik dasturlash texnologiyalaridan foydalanish orqali ham o'smirlar ongiga nutq va so'zlar vositasida hushyorlik hamda ogohlik fazilatlarini rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan.

Ta'lim inson sotsializatsiyasining oiladan keyingi asosiy agenti

¹⁵ Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 220 b.

¹⁶ Пиаже Ж. Психология интеллекта. – Питер, 2002. – С. 132; Макаренко А.С. Воспитание детей в семье и школе. – Чкалов. 1941 https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_005244228/; Ефремова Т.Ф. Толково-словообразовательный новый словарь русского языка. <https://classes.ru/all-russian/russian-dictionary-Efremova-term-10892.htm>; Кучурин В.В. Научно-педагогические взгляды С.М. Соловьёва: опыт историко-педагогической реконструкции // Вестник ОГУ. 2020. – №3 (226). – С. 19–27.

¹⁷ Мусурмонова О., Алимардонов З.Ш., Икматуллаев Г.З., Мирзажанова Д.М. Етим ва ота-она карамогидан махрум бўлган болаларни ижтимоийлаштириш. – Тошкент: “Маҳалла ва оила нашриёти”. – 62 б.; Эгамбердиева Н.М., Зохидова С.Р. Бўлажак педагогларни касбий ижтимоийлаштириш жараёнларини такомиллаштиришнинг дидактик имкониятлари. Монография. – Тошкент: “Маҳалла ва оила нашриёти”. – 108 б.; Hasanova K., Po'latova M., Qurbonova D. Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning pedagogik asoslari. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. – 168 b. Умурзокова Р.А Ўзбекистонда оила мустахкамлигининг социал омиллари. Соц. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлокий маданиятнинг ўрни. – Тошкент: «Адолат», 2016. – 224 б.

¹⁸ Каримова В. «Педагогик психология» фани (маърузалар матни). – Тошкент: ТДИУ, 2005 – 201 б.; Шарафутдинова Х.Г. Ўсмир психологияси: Диагностика. Психокоррекция. – Термиз, 2017. – 82 б.

Ijtimoiy pedagogikaning ta'lim tizimida tutgan o'rni alohida ahamiyatga molikdir. Chunki uning asosiy vazifasi o'smir yoshidagi bolalarning intellektual bilim darajasi va tarbiyasi, shuningdek, ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish hamda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan


Ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq: 1. Ta'lim mazmuniga. 2. O'quv rejalari, dasturlari, dasrliklar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligiga. 3. Ta'lim metodikalarining takomillashganligiga. 4. O'qituvchi mahoratiga. 5. O'quvchining individual psixologik xususiyatlariga

hisoblanadi. O'smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini qaror toptirishda ta'lim dargohlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi turli ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va h.k. masalalarga aloqador muammolar ta'lim sifati, undagi kadrlar sifati hamda samarali ishlash darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq: 1. Ta'lim mazmuniga. 2. O'quv rejalari, dasturlari, dasrliklar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligiga. 3. Ta'lim metodikalarining takomillashganligiga. 4. O'qituvchi mahoratiga. 5. O'quvchining individual psixologik xususiyatlariga.

Mazkur masalani o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning asosiy qismi ta'lim sifatidan yetarli darajada qoniqmasligi sohadagi muammolardan darak bermoqda. Mazkur muammolar, o'z navbatida, o'smirlarning bilimi, dunyoqarashi, jumladan, ogohlik va hushyorlik fazilatlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.

Respondentlarning 56 foizi maktab ta'limidan farzandlari qoniqmasligini, 22 foizi qisman qoniqishini va har beshinchisi butkul qoniqishini ma'lum qilishdi (1-rasm).




1-rasm. O'smirlarning maktab ta'limidan qoniqishi borasida ota-onalar fikri (foiz hisobida)

Olingan natijalar asosida ota-onalar va o'smirlarning maktabdagi ta'limdan qoniqmaslik holati, birinchidan, ta'lim sifati va o'qituvchilarning saviyasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihati o'quv binolari va jihozlarining eskiligi bilan izohlandi.

Tadqiqot davomida maktablarda o'qituvchilar saviyasining

yetishmasligi (46%), darslarning zerikarli o‘tilishi (45%) va ta’lim dargohining bino hamda jihozlari ta’mirtalab ekanligi (43%) o‘smirlar va ularning ota-onalari tomonidan asosiy muammolar sifatida qayd etildi (2-rasm).



2-rasm. Maktab ta’limidan qoniqmaslikning asosiy sabablari borasida ota-onalar fikri (foiz hisobida)


O‘qituvchi tomonidan darslarning monolog shaklida o‘tilishi va qat’iy tartib-intizomning talab etilishi aksariyat o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmoqda.

Respondentlarning 35 foizi darslarda ko‘pincha ustozlarning o‘zi gapirib, o‘quvchilar bilan muloqot qilmasligi, 29 foizi aksariyat hollarda o‘qituvchilarni faqat tartib va intizomgina qiziqtirishi holatlari ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirishini aytib o‘tishdi. 70 foizga yaqin o‘smir maktabdagi darslarni zerikarli deb topgan (3-rasm).

O‘smirlarning javoblari asosida darslarning qiziqarli bo‘lishi uchun ustoz va o‘quvchilar o‘rtasida muloqot o‘rnatilishi, mavzular muhokama qilinishi, o‘qituvchilarning yangi zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi hamda yangi multimedia texnologiyalari vositasida darslar qizg‘in o‘tilishining muhim ahamiyatga egaligi namoyon bo‘ldi.


O‘qituvchi tomonidan darslarning monolog shaklida o‘tilishi va qat’iy tartib-intizomning talab etilishi aksariyat o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmoqda

O'smirlarning har ikkinchisi (55%) dars davomidagi muloqot ularning fikrlash qobiliyatlarining oshishiga va darslarning qiziqarli bo'lishiga sabab bo'lishini qayd etgan. O'qituvchilar bilimlarini oshirish, yangi zamonaviy bilimlar bilan boyitish orqali darslarning saviyasi ortishiga 45 foiz o'smir ishonadi



3-rasm. Darslar zerikarli bo'lishining sababi borasida ota-onalar va o'smirlar fikri (foiz hisobida)


O'smirlarning har ikkinchisi (55%) dars davomidagi muloqot ularning fikrlash qobiliyatlarining oshishiga va darslarning qiziqarli bo'lishiga sabab bo'lishini qayd etgan. O'qituvchilar bilimlarini oshirish, yangi zamonaviy bilimlar bilan boyitish orqali darslarning saviyasi ortishiga 45 foiz o'smir ishonadi. Shuningdek, 40 foiz respondent yangi multimedia texnologiyalaridan foydalanilsa, darslarga qiziqish darajasi ortadi, deb o'ylaydi. Har to'rtinchi o'smir dars o'tish usullarini yangilash lozimligini e'tirof etgan (4-rasm).



4-rasm. Darslarning o'smirlarga qiziq bo'lishi uchun nima qilish kerakligi borasidagi fikrlar (foiz hisobida)

Ota-onalar va ustozlar orasidagi ijobiy hamkorlik farzand tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot davomida **o'qituvchilar ota-onalar bilan o'smirlarning tarbiyasi va xulq-atvori, muammolaridan ko'ra ko'proq tashkiliy masalalarda suhbatlashishi** namoyon bo'ldi.

Ota-onalar majlisida, asosan, qo'shimcha pul yig'imi (87%), bolalarning o'zlashtirish darajasi (60%), qo'shimcha to'garaklar faoliyati (45%) muhokama qilinadi. Keyingi o'rinlarda o'smirlar tarbiyasidagi muammolar (25%), o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlar (11%), o'tish davri muammolari (11%) va o'quvchilar salomatligi (5%) masalariga urg'u beriladi (5-rasm).




5-rasm. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida qanday muammolar muhokama qilinishi borasida ota-onalar fikri (foiz hisobida)

Ota-onalar va ustozlar orasidagi ijobiy hamkorlik farzand tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot davomida o'qituvchilar ota-onalar bilan o'smirlarning tarbiyasi va xulq-atvori, muammolaridan ko'ra ko'proq tashkiliy masalalarda suhbatlashishi namoyon bo'ldi

O'smirlarning aytishi bo'yicha, **sinf soatlari, tarbiya darslari davomida odob-axloq, milliy urf-odatlar, ota-onaga hurmat, do'stlik, e'tiqod masalari ko'p holatlarda muhokama qilinadi. Shu bilan birgalikda, maktab fondi, ta'miri kabi masalalarda pul yig'ish lozimligi borasida ham gaplashishi aniqlandi (6-rasm).**

72 foiz respondent o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar o'qituvchilari tomonidan qo'shimcha to'lov evaziga o'qitilishini qayd etgan. 18 foiz holatlarda ayrim o'qituvchilar o'z kasbiy vazifasi doirasida ortda qolgan o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlashi aniqlandi. Har o'ninchi respondent bu borada aniq fikr ayta olmagan.




6-rasm. Sinf soatlari, tarbiya darslari davomida muhokama qilinadigan masalalar borasida o'quvchilar fikri (foiz hisobida)

Maktabdagi ta'lim darajasi va o'qituvchilarning o'z vazifalarini bajarishi ularning o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlash holati bilan ham baholanadi. Tadqiqot davomida **aksariyat maktablarda fanlardan ortda qolayotgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar tomonidan to'lov evaziga qo'shimcha dars o'tilishi odatiy holga aylangani aniqlandi.**

72 foiz respondent o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar o'qituvchilari tomonidan qo'shimcha to'lov evaziga o'qitilishini qayd etgan. 18 foiz holatlarda ayrim o'qituvchilar o'z kasbiy vazifasi doirasida ortda qolgan o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlashi aniqlandi. Har o'ninchi respondent bu borada aniq fikr ayta olmagan (7-rasm).


Ma'lumki, dars jarayonida o'smirlarning fikrini shakllantirish, turli mavzular doirasida mushohada qilishga undash uchun barcha sharoitlarni yaratish imkoni mavjud. Olingan natijalarga ko'ra, **mamlakatimizdagi o'rta ta'lim ko'p hollarda o'smirlarning fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilmaganini ko'rsatmoqda. Aksariyat darslar davomida faqat fan doirasidagi darsliklarda berilgan bilimlarni yodlab aytib berish talab qilinishi qayd etildi.**



7-rasm. O'qituvchilarning o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashi borasida ota-onalar fikri (foiz hisobida)

Respondentlarning 42 foizi dars davomida ularning mavzu bo'yicha bilimlari tekshirilishi, 11 foizi ayrim o'qituvchilarning darslarida fikr bildirish umuman qo'llab-quvvatlanmasligi holatlari kuzatildi.

Respondentlarning 42 foizi dars davomida ularning mavzu bo'yicha bilimlari tekshirilishi, 11 foizi ayrim o'qituvchilarning darslarda fikr bildirishi umuman qo'llab-quvvatlanmasligi holatlari kuzatildi. Shu bilan birgalikda, har uchinchi respondent ayrim ustozlar tomonidan olingan bilimlarni o'zlashtirishdan tashqari uning mohiyatini anglashga urg'u berilishini e'tirof etdi (8-rasm).



8-rasm. Darslar davomida o'qituvchilarning o'quvchilar shaxsiy fikrini qo'llab-quvvatlashi borasida o'smirlar fikri (foiz hisobida)

Bugungi kunda maktablarda ta'lim sifatidan ta'lim oluvchilarning aksariyati yetarli darajada qoniqmasligi, sohada bir qator muammolar borligidan darak bermoqda. Mazkur muammolar, o'z navbatida, o'smirlarning bilimi, dunyoqarashi, jumladan, ogohlik va hushyorlik fazilatlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

Ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati ta'lim mazmuniga; o'quv rejalari, dasturlari, dasrliklar, o'quv qo'llanmalari va zamonaviy multimedia texnologiyalarining mavjudligiga; ta'lim metodikalarining takomillashganligiga; o'qituvchi mahorati va saviyasiga; o'quvchining individual psixologik xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda maktablarda ta'lim sifatidan ta'lim oluvchilarning aksariyati yetarli darajada qoniqmasligi, sohada bir qator muammolar borligidan darak bermoqda. Mazkur muammolar, o'z navbatida, o'smirlarning bilimi, dunyoqarashi, jumladan, ogohlik va hushyorlik fazilatlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.

Maktabdagi ta'limdan qoniqmaslikning asosiy sababalari sifatida, birinchidan, ta'lim sifati, metodika va o'qituvchilarning saviyasi yetarli emasligi, ikkinchidan, o'quv binolari va jihozlarining eskiligi bilan izohlandi.

O'qituvchi tomonidan darslarning monolog shaklida o'tilishi va qat'iy tartib intizomning talab etilishi aksariyat o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishini so'ndirmoqda.

Darslarning qiziqarli bo'lishida ustoz va o'quvchilar o'rtasida muloqot o'rnatilishi, mavzular muhokama qilinishi, o'qituvchilarning yangi zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi hamda yangi multimedia texnologiyalari vositasida darslarning qizg'in o'tilishi muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalar va ustozlar orasidagi ijobiy hamkorlik farzand tarbiyasida muhim o'rin egallagan holda bugungi kunda o'qituvchilar ota-onalar bilan o'smirlarning tarbiyasi va xulq-atvori, muammolaridan ko'ra ko'proq tashkiliy masalalarda suhbatlashishi mazkur jarayonning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Sinf soatlari, tarbiya darslari davomida odob-axloq, milliy urf-odatlar, ota-onaga hurmat, do'stlik, e'tiqod masalari ko'p holatlarda muhokama qilinishi o'smirlar dunyoqarashining kengayishiga hamda hushyorlik va ogohlik fazilatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birgalikda, maktab fondi, remonti kabi masalalarda pul yig'ish lozimligi borasida ham gaplar o'smirlar uchun keraksiz va noto'g'ri holat sifatida baholandi.

Maktabdagi ta'lim darajasi va o'qituvchilarning o'z vazifalarini bajarishi ularning o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlash holati bilan ham baholanadi. Aksariyat maktablarda fanlardan ortda qolayotgan o'quvchilar bilan qo'shimcha to'lov evaziga repetitorlik sifatida o'qituvchilar tomonidan dars o'tilishi odatiy holatga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. – Toshkent: Cho'pon nomidagi NMIU, 2013. – 144 b.
2. Авлоний А. *Туркий гулистон ёхуд ахлоқ*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 168 б.
3. Эгамбердиева Н.М. *Ижтимоий педагогика*. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 220 б.
4. Эгамбердиева Н.М., Зоҳидова С.Р. *Бўлажак педагогларни касбий ижтимоийлаштириш жараёнларини такомиллаштиришнинг дидактик имкониятлари. Монография*. – Тошкент: “Маҳалла ва оила нашриёти”. – 108 б.
5. Hasanova K., Po'latova M., Qurbonova D. *Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning pedagogik asoslari*. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. – 168 b.
6. Каримова В. *“Педагогик психология” фани (маърузалар матни)*. – Тошкент: ТДИУ, 2005 – 201 б.
7. Кучурин В.В. *Научно-педагогические взгляды С.М. Соловьёва: опыт историко-педагогической реконструкции // Вестник ОГУ. 2020. – №3 (226). – С. 19–27.*
8. Макаренко А.С. *Воспитание детей в семье и школе*. – Чкалов. 1941 // https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_005244228/
9. Мусурмонова О., Алимардонов З.Ш., Икматуллаев Г.З., Мирзажанова Д.М. *Етим ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни ижтимоийлаштириш*. – Тошкент: “Маҳалла ва оила нашриёти”. – 62 б.
10. Нажмидинова К.У. *Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни*. – Тошкент: “Адолат”, 2016. – 224 б.
11. Пиаже Ж. *Психология интеллекта*. – Питер, 2002. – 247 с.
12. Умурзоқова Р.А. *Ўзбекистонда оила мустақамлигининг социал омиллари. Соц. фан. номз. ... дисс.* – Тошкент, 2006.
13. *Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 24 ноябрдаги “Оммавий коммуникациялар соҳасида бошқарув тузилмасини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 555-сон қарори* // <https://lex.uz/ru/docs/373340;>
14. Ходжаев В.Х. *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 b.
15. Ефремова Т.Ф. *Толково-словообразовательный новый словарь русского языка* // <https://classes.ru/all-russian/russian-dictionary-Efremova-term-10892.htm>
16. *Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни* // <https://www.lex.uz/acts/83472>
17. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947-сон Фармони* // <https://lex.uz/docs/3107036>
18. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июлдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106-сон Фармони* // <https://lex.uz/docs/3255680>
19. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 февралдаги “Ахборот соҳаси ва оммавий коммуникацияларни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5653-сонли Фармони* // <https://lex.uz/docs/4188795>

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4312785>
21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5938-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4740345>
22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>
23. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5899498>
24. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси фаолиятини ташиқил этиш тўғрисида”ги ПҚ-146-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5884084>
25. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 19 июндаги “Баркамол авлодни тарбиялашда оила институти ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг таълим муассасалари билан ўзаро ҳамкорлигини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 175-сон қарори // <https://lex.uz/docs/2022620>
26. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги “Оила институтини янада ривожлантириш ва ёиларни оилавий ҳаётга тайёрлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 820-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/5193551>
27. Шарафутдинова Х.Г. Ўсмир психологияси: Диагностика. Психокоррекция. – Термиз, 2017. – 82 б.

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021. The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.